

O'ZBEK ASKIYALARIDA LISONIY HODISALARNING STILIZATSIYASI

Izatullayeva Muyassarbonu Nusratullayevna

BuxDPI I bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek askiyalariga lingvistikaning ta'siri masalasi ilmiy-nazariy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *leksik usul, vositalar shakdosh, zid ma'noli so'zlar, barqaror birikmalar, o'xshatish, metafora va ramzlar, morfologik usul va vositalar, juft so'zlar, takroriy so'z shakllari*

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda bo'lgani kabi adabiyotshunoslikda ham ,jumladan, askiya,lof, latifa janrlarining yozma adabiyotga ta'sirini o'rganish masalasida bosib o'tilgan yo'lni kuzatish, erishilgan yutuqlarni saralash, ularni yangicha mafkura, yangi nuqtai nazardan baholash zarurati yuzaga keladi. Zero, "Jahon madaniy merosining,jumladan ,o'zbek adabiyotining o'lmas asarlari bizga insoniyatning naslu nasabi, tarixiy ildizlari, oliyanob ideallari bir ekanini "⁶,xalqimizning xoxish-irodasi asosida dunyoga kelgan adabiy asarlarni chuqur mantiqiy mushohada qilish mas'uliyatini yuklaydi. Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga xalq maydon kulgisi ta'sirini o'rganish yangi tadqiqot hisoblanadi. Odatda odamzod uchun yangilik bo'lgan hodisaga nom berish jarayonida qanday so'z taklif etilmasin, ularning barchasida allaqanday saktalik bordek, atamaning ifoda qudrati hodisaning asl mohiyatiga qaraganda ancha cheklangandek tuyiladi. Lekin vaqt o'tishi ko'pchilik tilida qayta-qayta takrorlanishi natijasida o'sha so'z yoki atama tom ma'noda o'zi ifoda etishi kerak bo'lgan hodisaning ayniyatiga, aniqroq aytganda o'ziga xos ramz va obrazga aylanib ketadi. Fikrimizni o'zbek askiyalari asosida dalillaymiz. Askiya so'z o'yini bo'lishi bilan bir qatorda til hodisalari o'yinihamdir. Boshqacha autganda askiya til boyligi o'ziga xosligini namoyon qiluvchi, til birliklari va til hodisalarining turli xil ifoda imkoniyatlarini matnda mujassamlashtira oladigan badiiy so'z o'yinidir. Asarlar tarkibida askiyalar dialog asosida keltiriladi. Ularda lisoniy birliklarning nitqiy voqelanish imkoniyatlari to'la namoyon bo'ladi. Lisoniy birliklardan uddabronlik bilan turli kombinatsiyalar yaratiladi. Biz yuqorida keltirganimizdek, so'zlarni o'z ma'nolaridan ko'ra ko'chma ma'nolaridan ko'p foydalaniladi. So'zni "o'ynata" bilish, hozirjavoblik, ekspromt, so'zamollik, badihago'ylik va zukkolikka katta ahamiyat qaratiladi. Aks holda bellashuvchi "raqibi"dan yengiladi. . Fikrimizni quyidagi askiya misolida asoslaymiz, bunda fonostilistik aloqa usulining bo'lishish va birlashish hamda har ikkala holatning yuzaga chiqishini ko'rish mumkin.

Mamaroziq aka: Endi meva- chevalar mo'l- ko'l bo'lib qoldi, yeyavering, ilgari anor xonga berilardi.

⁶ Mirziyoyev Sh.M."Folklor san'ati insoniyatning bolalik qo'shig'I". Xalq baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan nutq. 2019-yil 6-aprel.

G'oyib aka: Bizga anorni ko'rsatib ol murid demang.

Mamaroziq aka: Boqqa zap kelib qolibsiz, nima xohlasangiz o'shandan olavering, bag'l dehqonchilik- ol Hirotdan kelgani yo'q.

G'oyib aka: Mehmon Hirotdan kelgan deb, joniga qo'ymay qistayversangiz –a: ol-ich-a, ol-ich-a deb.

G'oyib aka: Bog'bon aka gapingiz jiyda cho'pga o'xshaydi, qani ishkom joyga o'taylik.

Mamaroziq aka: Ish kam deb yumaloq bo'lib yotib olsangiz-a ?!⁷

Anorxonga birikmasi va ol murid birligida ular garchi ajratib yozilgan bo'lsada nutqda fonostilistik aloqa usulining bo'linish va birlashish holati o'z ifodasini topayotganligi pragmatic kontekstda oydinlashadi. Yani pragmatik kontekstda shakl va mazmun jihatdan meva-chevalar Anorxonga ham berilishi, anor esa xonga berilishi ham birdek nazarda tutilganligining ifodasi ayon bo'lmoqda."Kulgilik voqelik muayyan sifat holatining buzilishidir", -degan falsafiy qarash ham mavjud⁸. Demak bu usullarni aniqlashda gapning mazmuniy va shakily ifodasini e'tiborga olish lozim. Ol-icha, ol-icha so'zlarida esa, birlashtirish birinchi planga chiqqan. Buni aniqlash biro z mushkul bo'lsada (olicha-ol-icha-ot-fe'lmi, olcha- fe'l-otmi) pragmatik kontekstning shakily mazmuni harakatni ifodalayotganligi, harakat sememasi birinchi planga chiqayotganini e'tiborga olib, birlashtirish usuliga aloqador deb hisoblash mumkin. Birliklarni semik tahlilga tortsak, ular quyidagi ma'nolarda ishlatilganligi ma'lum bo'ladi: Anorxon- ayol kishining nomi, unga qo'shilgan xon hurmat ma'nosida. Anor xon- anordoshlarga mansub, kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi supturopik o'simlikning ichi qizil donalar bilan to'liq yumaloq mevasi⁹. Xon- turkiy va mo'g'ul xalqlari hukmdorlari unvoni¹⁰. Ol murid – narsani ushlab yoki biror narsa bilan qo'lga kiritmoq ma'nosidagi olmoq fe'li¹¹ bilan murid – arabcha diniy atama, "ruhoniy, ustoz, eshon, pirning shogirdi, muxlisi"¹² ma'nosida. Olmurut-shevaga xos nok.¹³ Ol-icha- narsani ushlab yoki biror narsa bilan qo'lga kiritmoq ma'nosidagi olmoq fe'li¹⁴ bilan suyuqlikni ho'plab yoki shimarib ichga yutmoq, tanovul qilmoq¹⁵. Olcha atirgullar oilasiga mansub mevali daraxtning danakli, yumaloq, nordon mevasini ifodalovchi fors-tojikcha so'z¹⁶. Bundan tashqari ol murid-olmurut so'zida tovush almashishi, ol-icha va olcha so'zida tovush ortishi hodisasini kuzatish mumkin.

Askiyaga asoslangan matn ko'pincha yumoristik matn sifatida namoyon bo'ladi. Unda so'z o'yini, badihago'ylik, teatrallik, sintetizm, komizm, musoboqalilik, sahnaviylik, ko'p talqinli sharhga egalik, milliy-madaniy o'ziga xoslik uyg'unlashib

⁷ Askiya. Meva askiyasi. B-38.

⁸ Falsafa. Qomusiy lug'at. Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2004. b-212.

⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. Toshkent O'zbekiston. 2020. b-87.

¹⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild. Toshkent. O'zbekiston. 2020. B-410.

¹¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. Toshkent. O'zbekiston. 2020. b-533.

¹² O'sha joyda. B-481.

¹³ O'sha joyda. b-534.

¹⁴ O'sha joyda. b-533.

¹⁵ O'sha joyda. B-343.

¹⁶ O'sha joyda. B-535.

ketadi. Askiya tilida iyhom, tajnis, annominatsiya san'ati yetakchilik qiladi. O'zakdosh so'zlarni turli shakllarda qo'llashdan so'z o'yini hosil qilinadi. Biz yuqorida keltirib o'tgan misollar kabi so'z o'yinlari hosil qilish uchun fonostilistik usul va vositalar (tovush almashtirish, tovush orttirish, tovush tushitirish, aralash turdagi tovush o'zgartirish, urg'u), leksik usul va vositalar (shakdosh, zid ma'noli so'zlar, barqaror birikmalar, o'xshatish, metafora va ramzlar), morfologik usul va vositalar(juft so'zlar, takroriy so'z shakllari), sintaktik usul va vositalar(sintaktik omonimiya, polifunksional hamda polisemantik gap bo'laklari, uslubiy takror, sintagmalash usuli) kabilardan keng foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmadovich H. H., Amrullojeva S. D. XX ASR QISSACHILIGI TARAQQIYOTIDA FOLKLORNING LATIFA JANRI TA'SIRI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 302-304.
2. Ahmadovich H. H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – C. 101-105.
3. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O 'ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 350-352.
4. Ahmadovich H. H. et al. O 'RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIM-TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 349-350.
5. Ahmadovich H. H. et al. IJODIY TOPSHIRIQLAR O 'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 293-294.
6. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 332-334.
7. Ahmadovich H. H. et al. O 'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 343-345.
8. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 306-309.
9. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O 'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 100-102.

10. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 248-250.

11. Ahmadovich K. H., Bahridinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 6. – С. 141-145.

12. Ahmadovich K. H., Zokirovna Z. A. G. THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 25. – С. 133-137.

13. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 7. – С. 130-133. Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/5. – С. 49-52.

14. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.

15. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

16. Khoja o'g'li T., Ahmadovich K. H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 9. – С. 1-4.

17. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 2. – С. 140-144.

18. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. О 'QUVCHILAR О 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 306-309.

19. Axmadovich X. X. et al. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLARNI О 'RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 281-285.

20. Ҳайитов Х. А. ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 3. – С. 679-687.

21. H H Akhmadovich Khoja nasridin afandi as people's hero . AKADEMICIA : AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL 11(2).1562.

22. 3.T. Khoja o'g'li, K H Ahmadovich Advanced Characteristiks of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature. Amerikan Journal of Social and Humanitarian Research 3 (9).1-4.

23. 4.K K Akhmadovich, NS Ubaydullayevna THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL INTEGRATIONS IN THE FORMATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMARY GRADES.Conferncea, 66-75..

24. 5.K K Akhmadovich, O B Togmurodovich NEW STAGES AND PRACTICAL CONDITIONS FOR CREATING NATIONAL TEXTBOOKS AND ALPHABET BOOKS. Conferencea, 54-58.

25. 6.K K Akhmadovich, SG Badriddinnovna THE CONCERT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN'S READING E Conferencea, 28-33.

26. 7.KK Akhmadovich, N O Alisherovna THE AESTHETIC VALUE OF LINGUISTIC FLORIONYMS IN WORKS OF ART IN AROUSING LAUGHTER 59-63.

27. 8.K K Akhmadovich, O B Togmurodovich THE ISSUE OF THE CONTENT OF EDUCATION IN THE HISTORY OF THE PEOPLES OF THE EAST Conferencea, 95-101.